

1-MAVZU.

SENTYABR – “MUSTAQILLIK VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

(3-hafta)



1-keys. “Imkoniyat eshigi”



Vaziyat:

Sevinch maktabda yangi fan to‘garagi ochilganini eshitdi. Eng faol o‘quvchilar keyingi bosqichdagi tanlovda qatnashishi mumkin edi. Sevinch: “Baribir yutolmasam kerak”, – deb qatnashmaslikka qaror qildi. Dugonasi esa: “Imkoniyat berilganda avval sinab ko‘rish kerak”, – dedi.



Savollar:

- 1 Sevinchning ikkilanishiga nima sabab bo‘ldi?
- 2 Dugonasining fikriga qo‘shilasizmi? Nega?
- 3 Imkoniyatdan foydalanish uchun qanday fazilatlar kerak
- 4 Sizga berilgan qaysi imkoniyatdan foydalanishni xohlaysiz?



Topshiriq:

Sevinchga bir jumla
dalda yozing: “Sinab
ko‘r, chunki ...”

Sinab ko‘r, chunki



1-MAVZU.

SENTYABR – “MUSTAQILLIK
VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

(3-hafta)



2-keys. “Yangi bog‘, eski odat”



Vaziyat:

Shaharda yangi va chiroyli bog‘ ochildi. Odamlar sayr qiladi, bolalar o‘ynaydi. Ammo ayrim kishilar chiqindini yerga tashlab ketmoqda. Kamron: “Bog‘ni qurishgan bo‘lsa, uni tozalash ham faqat boshqalarning ishi”, — dedi.



Savollar:

- 1 Kamronning fikri to‘g‘rimi? Nega?
- 2 Yangi bog‘ning odamlar uchun foydasi nimada?
- 3 Umumiy joyni saqlashda fuqarolarning vazifasi nima?
- 4 Taraqqiyot faqat yangi joylar qurish bilan tugaydimi?



Topshiriq:

“Taraqqiyot — faqat qurish emas, balki ...” jumlasini uchta fikr bilan davom ettiring.

1.

2.

3.

